

KIRISH

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin tarixan qisqa vaqt ichida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy – ma'rifiy sohalarda juda katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Bu yutuqlar Respublikamiz Prezidenti I. A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan demokratik jamiyat qurishni o'zida ijoda ettiruvchi bozor munosabatlariga asoslangan konsepsiyaning to'g'riligini jahondagi siyosiy arboblardan etirof etilishi O'zbekistonning obre e'tirobirini oshirmoqda. Totalitarizmdan demokratik jamiyatga o'tishning bu "O'zbek modeli"ning o'ziga xos tomonlaridan biri-mavjud muammolar va o'tmish davrida paydo bo'ladigan yangi muammolarni hal etishda ajdodlarimiz qoldirgan ulkan ma'naviy merosga, xalqimizning o'ziga xos urf odatlari, an'analari, qadriyatlariga tayanish va ulardan keng foydalanishga asoslangandir.

Prezidentimiz 1992-yildayoq "Oldin odamlarga moddiy boylik berish, so'ngra ma'naviyat to'g'risida o'ylash kerak, deganlar haq bo'lmasalar kerak. Ma'naviyat-insonning xalqning jamiyatning davlatning kuch qudratidir" deb ta'kidlagan edi.

Ana shu ko'rsatmaga muvofiq ma'naviyatni rivojlantirish, mamlakatda amalga oshirilayotgan barcha ishlarda ungan tayanish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Xususan Prezidentimizning 1994-yil 23-aprelda Respublikamizda "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazini tuzish to'g'risida; 1996-yil 9-sentabrda esa "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida; 1999-yil 3-sentabrdagi "Respublika ma'naviyat va ma'rifat" kengashini qo'llab va quvvatlash to'g'risida"gi farmonlari va 1998-yil 24-iyulda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ma'naviy va ma'rifiy islohatlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora tadbirlari to'g'risida" maxsus qarori qabul qilindi. Bu hujjatlarga binoan Respublika oily va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 1997-yildab boshlab barcha oily o'quv yurtlarida "Manaviyat va ma'rifat asoslari" maxsus kursini o'qitish to'g'risidagi qaror qabul qildi va uning dastlabki o'quv dasturlarini ishlab chiqildi. O'tgan davr ichida ma'lum bir tajribalar to'plandi. Chunki xalqimizning jamiyatning ma'naviyatini ko'tarish va rivojlantirish bugun ham, ertaga ham muhim vazifa sifatida qolishi muqarrardir. Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasidagi ma'ruzasida O'zbekistonning XXI asr arafasi va uning dastlabki yillarida mamlakatimizning rivojlanishi ustivor yo'nalishlarini belgilab berar ekan, "Ikkinchi ustivor yo'nalish-jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirishdan iborat. Ma'naviyat haqida gap ketar ekan, men avvalo insonni ruhiy poklanish va

yuksalishiga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon irodasini, etiqodini mustahkamlaydigan vijdonini uyg'onatadigan qadratli botiniy kuchini tasavvur qilaman deb ta'kidladi. Haqiqatdan ham ma'naviyat qanchalik yuksak bo'lsa, inson qalbida johillik, yovuzlik, xudbinlik, yolqovlik kabi salbiy illatlarga o'rin qolmaydi, uning o'rnida yoshlarimiz ongida vatanparvarlik, yaratuvchanlik, tuyg'ulari yuksak darajaga ko'tariladi, o'zaro munosabatlarda samimiylilik, birdamlik, mehr-oqibat, e'tiqod, iymon, ma'suliyat va boshqa bir ijobiy fazilatlar xalqimiz turmush tarzining ajralmas boyligi darajasida yana ham mustahkam o'rin olb boraveradi.

Ana shu o'ta muhim vazifalarni ham qilishimiz uchun milliy istiqlol g'oyasini chinakam moddiy kuchga aylantirish strategic ahamiyatga egadir. Bu o'z navbatida biz qo'lga kiritgan istiqlolning ma'no va mazmuni, milliy o'zligimizni to'la anglashimizga milliy g'urur va iftixor tuyg'ularimizni mustahkamlashimizga, vatan va millat istiqboli uchun har birimizning ma'sulligimizni tushunib yetishimizga o'zining katta ta'sirini ko'rsatadi.

Xuddi mana shularni ijobiy hal qilishimiz Prezidentimizning ma'naviyatimizni yangilash borasida oldimizga qo'ygan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga imkon beradi. Zero ular ta'kidlaganidek.

“Jamiyat ma'naviy yangilashdan bosh maqsad-yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish va komil insonni tarbiyalash ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ko'p-ko'p muhim masalardan iborat”

Bu ulkan vazifalarni ma'naviyatimizni milliy istiqlol g'oyalari bilan boyitib bersakkina amalga oshirishimiz mumkin bo'ladi.

MAVZUNI ASOSLASH

MAVZUNI ASOSLASH

Bitiruv malakaviy ishim mazmuni Rangtasvirda “Hind ayoli” portreti tasvirlash va uni o’qitish uslubi.

Aynan shu mavzuni tanlashimga sabab, bu hind ayollari... Qadimgi hind donishlandliiga ko’ra ayol kishida tabiatning faol kuchlari hamda ijodiy qudrat mujassam ekan. Ayol erkakga kuch beradi va unga omad keltiradi, shuning uchun ham Hindistonda erkakning muvoffqariyati va salomatligi ko’p jihatdan uning ayoliga bog’liqdir. Hind kinofilmlari qahramonlariga har doim ham to’g’ri kelmasada, hind ayollari chiroyli nafosatli va muloyimdir. Hindistonda faqat analik burchini bajarsa bas, degan fikr mustahkam o’rnashib qolgan. Ushbu yuzaki fikrga ozgina bo’lsada, o’zgartirish kiritish va zamonaviy hind ayoli haqida tasavvurga ega bo’lishimizga yordam beradigan, men bitiruv malakaviy ishimda portretni tasvirlamoqchi bo’lgan hind ayoli Hindistonning O’zbekistondagi favqulotda va muxtor elchisining rafiqasi Praminda Sabxarvalning “Jannat makon” jurnali muxbirlari bilan bo’lgan suhbatni keltirishni lozim ko’rdim.

HIND AYOLI

HIND AYOLI

Jannat makon : Muxtaram elchining sharqano fayzli qarorgohida xonadon bekasi bilan dunyodagi eng sirli mamlakat xususiyatlari haqida suhbatlashdik.

Jannat makon: Zamonaviy hind ayolini tasvirlab beringchi?

Paminda sabxarval: Yaqingacha ham hind ayolining vazifasi eriga va bolalariga g'amxo'rlik qilishdangina iborat deb hisoblanardi. Bugungi kunga kelib sharoit ancha o'zgardi. Ro'zg'or bilan shugullanish barobarida ko'pgina ayollar martabaga erishayapdilar, shu asnoda oila va jamiyatda ayol bilan erkakning roli tenglashib bormoqda. Zamonaviy Hindistonda ayollar hukumatda ham ayollar yuqori lavozimlarni egallashgan, masalan, dunyoga mashhur Indira Gandi Bosh vazir edi. Hind shtatlarida ayol-vazirlar va ayol sudyalalar anchagina. Vaholanki bu sohada talay muammolar bor: ayollar erkaklar bilan teng barobar og'ir jismoniy mehnat bilan shug'ullanadilar, ro'zg'orni boshqaradilar, bolalarni parvarish qiladilar.

Jannat makon: Hind oilalarida yer va xotinning huquqi teng deya olasizmi?

Praminda sabxarval: Hozirgi paytda Hindistonda er va xotin munosabatlari borasidagi an'analar juda qat'iy deya olmaymiz. O'zimizga kelsak, oilada turmush o'rtog'im bilan mening huquqimiz birdek, bir-birimizni yaxshi tushunamiz va hurmat qilmaymiz. O'zimni unga qaramdek his qilmayan. Shuning uchun ham birgalikdagi turmushimiz-bu juftlik, nikoh esa biz uchun haqiqatdan ham muqaddas ittifoqdir. Mana, 25 yildan beri birgamiz. Bizni qaridoshlarimiz tanishtirib qo'yishgan. Men sikx dinidaman, erim induizmga sig'inadi biz turmush qurgan paytda boshqa-boshqa dindagilarning bishlashuv juda ham hodisa bo'lsa-da, uning ham mening ham yaqinlarim hissiyotlarimizga chuqur tushunish bilan qaradilar. Hanuzgacha tuyg'ularimiz birdek, bir-birimizsiz tura olmaymiz.

Jannat makon: Bolalar tarbiyasi ota va uning mas'uliyati qay darajada belgilangan?

Praminda sabxarval: Bugun dunyoda bo'lgan kabi bola parvarishi uchun ona ko'proq vaqt ajratadi. Erimni ham, meni ham onalarimiz tarbiyalashgan, chunki ular ishlamasdi, otalarimizni esa faqat kechqurun, dasturxon ustida ko'rardik. Bizning oilamizda esa farzandlarimiz tarbifasida turmush o'rtog'im men bilan teng barobat g'amxo'rlik qilgan. Bolalar kichkinaligida erim har kuni kechqurun ertak aytib berardi. Bayramlarda u yoq-bu yoqqa o'ynatgani olib borardi doimo nimalarnidir ko'rsatib hikoya qilib berardi. Hozir qizim 23 yoshda, o'g'lim 20 ga kirdi, doimo qo'ng'iroq qilib, otasi bilan maslahatlashib turishadi. Biz farzandlarimizga hind an'alariga muvofiq qadriyatlarni-oila rishtasining

mustahkamligi, kattalarga hurmat, halollikni singdirishga harakat qildik. Agar ular bizdan boshqacharoq qarashlarga ega bo'lsalar ham bu ahqda yuzimizga ochiq gapirib, o'zlarining haqligini isbotlashga urinib, o'zlarining haqligini isbotlashga urinib, biz bilan tortishmaydilar, deb ishonaman. Ehtimol, ota-onalarning zakovati0yu, farzandlar tarbiyasining rasoligi shunda yaqqol nomoyon bo'lar.

Milliy xususiyatlar: To'y, sari, taomlar.

Jannat makon: To'yingiz qanaqa bo'lgan?

Praminda Sabxarval: Hindistonda to'ylar diniy urf-odatdan kelib chiqib o'tkaziladi. Shuningdek, zamonaviy to'ylar ham uchrab turadi. Bizdan nikohni qayd qilish idoralariga ko'p ham murojat qilavermaydilar. Biz to'yimizda induist marosimiga ko'ra, bir umrga muhabbat va sadoqatda yashaymiz, deya qasamyod so'zlarini takrorlab, kuyov bilan ikkalamiz muqaddas gulxoan atrofida yeti marta aylanganmiz. Yettinchi aylanishda ruhoniylar kelin-kuyovga fotixa beradi. Keyin ota-onalar fotihasi olinadi. Odatda, bizdan yozma ahdnoma tuzilmaydi. Erim ikkovimizning nikohimizni qayd qiluvchi birorta hujjatimiz yo'q. Bir parcha qog'ozdan ko'ra, diniy aqidamiz bizni mustahkamroq bog'lab turadi. To'y kuni egnimizga maxsus kelin libosi-tillarang qizil sari kiygan edim. Hindistonda kelin urf-odatimiz bo'yicha pushtidan to qizil rangdagigacha bo'lgan maxsus to'y libosini kiyadi. Ammo bu kuni hech kimning egnida oq rangdagi kiyimni ko'rmaymiz. Kundalik hayotda, aksincha turli rangdagi sarilar kiyiladi. Hozir zamonaviy qizlar uchun to'y liboslari juda ko'p. Hozir lexenga deb ataluvchi libos urf bo'lgan. Bu etagi yerga tegib turadigan og'ir yubka, uni bluzka bilan kiyiladi. Uning ustidan orni-libosning qo'shimcha bezagi kiyiladi.

Jannat makon: Sari kiyishga qancha vaqt ketadi?

Parimda Sabxarval: Endi o'rganayotgan yosh qizlar o'rtacha 15 daqiqada sari o'raydilar, bora-bora qo'li kelishib qolsa bunga ko'p vaqt sarflamaydilar. Sari-bu uzunligi 5,5 metr, eni 1,15 santimetrlik yaxlit mato. Unga alohida ixcham bluzka va ichki yubka tikiladi, shu yubkaga sari o'raladi. Uni bog'laydigan, qadaydigan hech qanaqa narsasi bo'lmaydi. Ammi sari og'ir matodan bo'lsa, qadab olish kerak bo'ladi. Mening onam tengi ayollar saridan boshqa ko'ylanlarni tan olmasdilar. Ayollar sari kiyib sayohat qilishgan, tog'larga chiqishgan, sari juda qulay kiyim.

Jannat makon: Hind taomlarining o'ziga xosligi nimada?

Praminda sabxarval: Hindistonda qaysi shtatda ekanligingizga qarab, taomlarni turlarga ajratib olishingiz mumkin. Ba'zi shtatlarda begetarianlar ko'p,

ba'zilarida achchiq taomni xush ko'rishadi. Achchiq ziravorlarning va ko'katlarning ko'p qo'shilishi taomlarimizning asosiy xususiyatidir. Hindistonning asosiy xususiyatidir. Hindistonning ko'pchilik aholisi go'sht yemaydi. Tovuq go'shtidan tayorlanadigan korri degan taomni ko'pchilik iste'mol qiladi. Tayyorlanishi oddiy: tovuq kichikroq bo'laklarga bo'linib, terisi ajratib olinadi, keyin zanjabil, sarimsoq, piyoz va pamidordan sous tayyorlanadi. Bu marsala deb ataladi. Ularni yog'da qovurib, tayyor bo'lgach, tovuq bo'laklari kashnich, za'faron, tabga ko'ra tuz va qalampir qo'shiladi. Pishgunicha juda past olovda dimlab qo'yiladi. 1 kg tovuqqa 4 ta yirik piyoz 2 ta yirik pamidor va yarim choy qoshiq zanjabil va sarimsoq qo'shiladi.

Jannat makon: Haqiqatdan ham hindlar xuddi filmlarizdagi kabi doim xursand, qo'shiq va raqsni yaxshi koradigan odamlarmi?

Parimda Sabxarval: Ha (kuladi) bu haqiqat. Filmlarimizda folklardan ko'p foydalaniladi. Qo'shiq va raqs esa hindlar hayotining ajralmas qismidir. Mamlakatning barcha shtatlarida katta diniy bayramlar, tantalai marosimlar o'tkaziladi. Albatta qo'shimcha qilib aytishim kerakki, filmlarda biroz oshirib yuborishadi, chunki filmlar ko'ngil ochish uchun yaratiladi. Hatto eng kambag'al odamlar ham kinoga tushishadi, bu narsa ularni turmush tashvishlaridan bir oz bo'lsa-da chalg'itadi. Ochig'I, mening uch soatlik kino ko'rishga sabrim chidamaydi, ammo film yaratuvchilarining sarflagan harajati va mehnati yuqori baxolayman. Ertakmonand filmlar o'tmishda qolib, ijtimoiy muammolarni ko'tarib chiquvchi kortinalar ancha ko'payib bormoqda.

Jannat makon: Parimda Sabxarvol mamlakatimizda faqat tantanali ziyofatlarda qatnashish va uy-joyi bilan shug'ullanibgina qolmay, maktabda bolalarga ta'lim bermoqda.

**a) RANG TASVIR
SAN'ATI**

a) RANG TASVIR SAN'ATI


Rang tasvir –tasviriy san'ati turi hisoblanadi. Rang tasvir asari biror qattiq yuzada rangli ashyolarda, misol uchun bo'yoqlar yordamida yaratiladi. Voqealikni badiiy tasvirlash, talqin qilish rang tasvirda nomoyon bo'ladi. Rang tasvir tomoshabin fikri, tuyg'ulariga ta'sir etishning muhim vositasidir. U muhim ijtimoiy vazifalarga ega. Rangtasvir asarining g'oyaviy mazmuni uning mavzu va syujetiga mujasamlashgan bo'ladi. Syujetni rassom rangtasvirning ifoda vositalarida, kompozitsiyada rasmda, rangda, ritmda amalga oshiradi. Rang tasvir asarlarining asosi yog'och, qog'oz, karton, shisha, metal va maxsus ishlov berilgan mato bo'lishi mumkin. Rangtasvirning rang qatlami moybo'yoq, guash, tempera, akvarel, rangli shisha, rangli tosh bo'ladi. Ayrim hollarda uni saqlash maqsadida ustidan berilgan yupqa lar qatlamidan iborat bo'ladi. Rangtasvir asarlarining muhim tasviriy va ta'sir vositasi rang hisoblanadi. Rassom rang orqali hayoliy dunyo yoki borliqni ko'rinarli shakllarda tasvirlaydi, makonning cheksizligini, undagi narsalarning rang-barangligini, moddiyligini, hajm va fakturasini ko'rsatishi harakat, inson ruhiyatidagi o'zgarishlar, murakkab hissiy kechinmalar, o'y-hayollarni aks ettirishi mumkin. Rang tasvirning tasviriy ifoda vositasi va ishlash uslubi ishlatiladigan, qurollar xususiyati, rang eritgichlari asosiga bog'liq. Rang tasvir asari dastlab ijotkor ongi va tasavvurida paydo bo'lgan g'oya qoralamasi tarzida qalamda biror yuza ko'pincha qog'oz va kartonda ishlab olinadi. So'ng ish mohiyatiga mos asos tanlanib, unga bajariladigan ishga ishlov beriladi.


Shundan so'ng tasvir o'rni belgilab olinib, rasm ishlanadi. Rang berishda esa birinchi asta suyultirilga rang bilan boshlab ko'p qatlamli yoki kerak rangni bir qo'yishda bir qatlamli bajarish mumkin.


**b) RANGTASVIRDA
PORTRET JANRI**


b) RANGTASVIRDA PORTRET JANRI

Portret-fransuzcha portrait soʻzidan tarjima qilinganda tasvir degan maʼnini bildiradi. Portret tasviriy sanʼat janri hisoblanadi. Real hayotda mavjud boʻlgan yakka, ikki yoki bir guruh kishilar, rassom tasavvurida paydo boʻlgan hayoliy qiyofalarning tasviri. Rangtasvir haykaltaroshlik, grafika, shuningdek foto sanʼatining muhim janrlaridan biridir. Portret asosida aniq shaxsning qiyofasini abadiylashtirish yotadi. Portretning muhim tomoni tasvirning tasvirlanuvchi (model asli)ga aynan oʻxshashligidir. Ijodkor portret orqali tasvirlanuvchi shaxsning maʼnaviy dunyosini, ijtimoiy hayotdagi oʻnini, kasbi, jamiyatdagi mavqeni aks ettiradi va uning shu jihatlari orqali davr xususiyati siyosiy iqtisodiy ahvol haqida maʼlumot bera oladi. Rassomning kasbiy mahorati portret ishlash uchun tanlangan materillari esa uning yaratgan asarlari takrorlanmas oʻziga xoslik baxsh etadi. Tarixan portretning xilma-xil tur va koʻrinishlari shakllangan. Ishlanish usuli, bajaradigan vazifasi, shakli mazmuniga koʻra, dastgoh (kartina, byust, grafika varagʻi) va monumental (monumental haykal, freska, mozayka) tantanavor parad, xajviy, satiric. Portret tarzida tasvirlanuvchining faqat bosh qismi boshqacha, butun boʻy basti bilan old va yon tomonidan ishlanishi mumkin. Shuningdek turli tarixiy davrlarda nishon, tanga, modellar, yuzasida ishlangan gemma, gliptika, medalyonlarda miniatyura portreti tarqalgan. Portret janridagi bir asarda koʻpincha bir necha janrlar qoʻshilishi mumkin. Portretda tasvirlanuvchi sof holda (zaminsiz, yaʼni atrof muhitni aks ettirmasdan) tinch holatda yoki biror faoliyati bilan maʼlum muhitda ishlanishi mumkin. Shu tufayli shartli ravishda portretni portret va portret kartina (janri portret)ga ajratiladi. Portretning keng tarqalgan turlaridan biri – avtoportret. Tasvirlanayotgan kishilar soniga koʻra, yakka, qoʻshaloq va guruh portretlarga boʻlinadi.









**ATROF MUHIT
MUXOFAZASI
QISMI**

ATROF MUHIT MUXOFAZASI QISMI

Har qanday tuproq qattiq, suyuq va gazsimon qismlardan iborat bo'ladi. Uning suyuq qismi suvdan iborat bo'lib, shu suyuqlik tuproq eovoqlari orasida joylashgan va tuproq zarralari suyuqlik bilan to'yingan bo'ladi. Tuproqdagi namlikning asosiy manbalari-atmosfera va yer osti suvlari bilan ta'minlaydi.

Tuproqdagi suv turli hollarda bo'lishi mumkin, ya'ni: 1. Kristallangan namlik; 2. Qattiq namlik; 3. Bug' holatidagi hamlik; 4. Bug'langan namlik bo'ladi. Tuproqdagi uchraydigan absorbatsiya qilinadigan kalitlar suv-tuproqning 0,2-8.0 mlli eovaklari orasida to'plangan bo'lib, ular o'simliklar tomonidan foydalaniladi. Suvning bu xili tuproqdagi bakteriyalar, soda tuzilgan mayda manbalarning hayot faoliyatini ham ta'minlanadi.

Undan tashqari tortiluvchi gravitatsion suv ham uchrab, tuproqning kattaroq qovoqlaridan vaqtincha to'planadi, lekin tezda tarqalib ketadi. Yuqorida keltirilgan va tuproqda uchraydigan suvning formalari ichida erkin tortishuvchi gravitatsiya suvi o'simliklar tez va yengil o'zlashtiriladi. Sevning bu formasi yomg'ir yoki sug'orish davomida tuproqda doim bo'ladi. O'simliklarning suvga bo'lgan extiyojini suvga bo'lgan extiyojini qondira olmaydigan tuproqdagi namlikning sulish ko'fsenti deb aytiladi. Bunday namlik qumda 0.9 % og'ir loyda esa 16.3 %ni tashkil etadi. Tuproqdagi bor suvning miqdori va uning ishlab turilishi-tuproqdagi namlik hajmi deyiladi, tuproqning namligini ishlab shimib olishi va pastki qatlamlariga o'tkazishi, tuproqning namlik, o'tkazuvchanligi deb aytiladi. Yer osti suvlarining yoki pastki qatlamlardagi namlikning kanilyarlar orqali zarrachalardan eovaklarda ko'tarilishi tuproqning sevnini ko'tarib berish hislati deyiladi. Tuproq erishmasi, uning tarkibi, konsentratsiyasi tuproqdagi suv va unda erigan organik holda minirel moddalar miqdoridan kelib chiqadi. Masalan, tuproq suyuqligining quruq qoldig'ini konsentratsiyasi 0.25%dan kam bo'lsa, sho'rlangan tuproq hisoblanadi. Tuproq eritmasi miniral birikmalaran biqarbonat kalsiy-bikarbonat magni, namroq kali bikarbonati, natri bikarbonati uchraydi.

Tuproq eritmasi tuproq hosil bo'lishiga, yengil eriydigan turlarning ko'pligi esa sho'rxok, sho'r tuproqlarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

Tuproqning gaz rejimi uning havo o'tkazuvchanlik va javo saqlash xususiyatlariga bog'liqdir. Tuproqda havoning oz yoki kup bo'lishi eobakligiga bog'liqdir; namlik kamnuroqlarda havo kam bo'ladi. Tuproqdagi havoning miqdori 0-40% gacha bo'ladi. Tuproqda keltirilgan asosiy gazlardan tashqari ozroq miqdorda gazlar ham bo'ladi.

Tuproq muhitida atmosferaga nisbatan azotning miqdori oz (2%) karbonat angidrik (10% gacha, ayrim hollarda 20%) ancha yuqori bo'ladi.

Tuproqning 25 sm qalinligida doim atmosfera bilan havo almashinib turadi. Yer yuzining o'simliklar bilan qonlangan maydoni 100-10 km, Tuproqda havoning umumiy hajmi 120-10 kmga teng. Tuproqning harorati quyoshdan ketalyotgan energiyaga bog'liqdir. Tuproqning yuza qismi quyosh nurini yutish hisobiga qiziqdi. Quyosh nurining 15-45% qaytariladi. Lekin, tuproqning yuza qismida harorat doim o'zgarib turadi. Kunduzi qizigan tuproq tungi payt o'zidan issiqlik chiqaradi, va sezilarni darajada soviydi, harorat pasayadi, lekin tuproqning pastki qatlamlarida harorat doimiy.

Tuproq harorati kun davomida o'zgarib turadi. Masalan, cho'l hududlarida tuproq yuzasiga yoz faslida harorat 50 gradusdan ortsa, 50 sm chuqurlikdagi harorat kun davomida 2-3ga o'zgaradi. Bunday o'zgarish ovrnaning o'rta qismidagi tuproqlarning 30 sm chuqurligida kuzatiladi. Tuproqdagi ayrim ekologik amillarning sabiy ta'siri natijasida o'simliklar tabiiy suvni fiziologik jihatdan qabul qila olmaydi, masalan, past harorat natijasida tuproq muzlaydi va bunday nalikni o'simlikning ildizi qabul qila olmaydi. Yoki tuproq yuzasini suv bozganda, tuproq zarrachalari orasida kislodor loq holda ham o'simliklar namlikni tortib olmaydi, sarg'ayadi, keyinchalik quriydi. Tuproqning ortiqcha sho'rli yoki nordonligi tufayli shu yerda bor namlik o'simliklarga fiziologik foydali emasdir. Shunday qilib, tuproq tirik organizmlar uchun hayot muhiti bo'lishi bilan suv o'tkazish, issiqlik va havo soqlash qobiliyatiga ega jinsdir.

**HAYOT
FAOLIYATI
XAVFSIZLIGI**

“HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI VA MEHNAT MUHOFAZASI”

QISMI

Bitiruv malakaviy ishim rangtasvirda “Hind ayoli” portretini tasvirlash va uni o’qitish uslubi mavzusida bo’lib, unda loyihaning arxitekturaviy, me’moriy rejaviy va landshaf dizyn yechimi masalasi qarab chiqilgan. Bitiruv malakaviy ishimda o’quvchilarga uchun, xavfsizlikni ta’minlash, yong’in va elektr xavfsizligini oshirish, zilziladan va yong’in sochinlardan odamlarni muhofaza qilish chora-tadbirlari ko’rib chiqilgan. Shuning uchun ham bitiruv malakaviy loyiha ishining “Hayotiy faoliyat xavfsizligi va mehnat muxofazasi” bo’limida biz asosiy e’tiborni har qanday joyda ham, istalgan paytda ham sodir bo’lishi extimoli bo’lgan tez tez yuz beradigan yong’in, portlash, elektr xavfsizligi, havo harakatining keskin sodir va o’sib ketishi kuchliroq va yomg’ir yog’ishi, zilzilaga va sanitariya-gigiyena talablari hamda tizimlarning ishdan chiqishi suv bosimi kabi ofatlarga qaratamiz.

Loyiha ishlarini bajarishda ranglarni ta’siri.

Bir xillik odamga salbiy ta’sir etib inson organizmi himoyasini va asabni markazlashuvini ishlab chiqarish estetikasini joriy qilish, xonalarni va injenerning ko’zni qamashtirmaydigan rangda bo’yash, yoritish, musiqa, bezash iliqliqning oldini olish ruhiy fiziologik o’ynalish hisoblanadi. Kunchilik ishlab chiqarish binolarni yashil rangda bo’yash maqsadga muvofiq chunki, bu rang ta’sirsiz bo’lib markaziy asam tizimini o’gotishga ham tormozlanisha ham sabab bo’lmaydi. Asabga tormozlanuvchi ta’sir ko’rstadigan kun va havo rang bo’yoqlar bn zaiflashish kun ajrashadigan kun yoki shovqin hosil qiladigan xonalarni uskunalarni bo’yash maqsadida muvofiq hisoblanadi.

Qizil va sariq ranglar ko’zga ta’sir ko’rsatadi. Shuning uchun ulardan qisqa ishlaydigan ya’ni sozlash va ta’mirlash ishlarini bajarishda vaqtidagina bo’ladigan hollarda foydalanish mumkin. Biroq xona va uskunalarni bir xil rang bilan bo’yash ta’sir etilmaydi. Chunki bir xillik odamga salbiy ta’sir etib inson organizmi himoyasini va asabni markazlashuvini kamaytiradi. Bo’yoqlarad shuningdek extiyorkorlik maqsadida ham foydalaniladi. Transport vositalari, sexdagi jumraklar va boshqalar uskunalarni tiniq ranglarga bo’yash, ishlab chiqishda shikaslanish xollarini kamayishiga olib keladi. Sex va boshqa joylarni unumli yoritish yorig’likning bir tekis tarqalishi sexni ichki tomonlarini badiiy bezatish chiroyli va qulay ish kiyimi toliqishni tibbit shartsharoitni yaqinlash, ishlab chiqarishda texnik talablarga muvofiq qilish, mehnat unumdorligini oshishi yo’llaridan biri hisoblanadi. Chang, gaz, shovqin va tebranishlar kamaytirish, meyoriy mikroiqlik

yaratish, bularning hammasi kasbga aloqador va kasbga aloqasi bo'lmagan kasallikning oldini olish uchungina emas, balki ish qobiliyatining yuksak bo'lishi uchun ham zarur shart sharoit hisoblanadi.

O'QUV USLUBIY

QISM

O'QITUVCHI QANDAY BO'LISHI KERAK

Pedagogika termini grekcha ikki so'z "pays", ya'ni bola hamda "egeyp", ya'ni boshlab berish, boshqarish, tarbiyalash degan so'zlardan kelib chiqadi.

Tarixdan shunday bo'lib chiqdiki, pedagogika asosan bolalarni, yosh avlodni tarbiyalash haqidagi fan sifatida taraqqiy etdi.

Pedagogika o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash to'g'risidagi fandit. Kishilik jamiyati taraqqiy etishi bilan u ham o'sib boradi.

Kishilik jamiyati paydo bo'lishi bilan odamlarning mehnat faoliyati protsessida ularning ishlab chiqarish tajribalari mehnat malakalari paydo bo'ldi va ular o'zgarib, orta bordi, ularda turli mehnat qurollarini ishlata bilish ko'nikmalari hosil bo'ladi va bu qurollarni takomillashtirish qobiliyati, nutq va tafakkur o'sib rivojlanib bordi. Keksa avlod mehnat protsessida arttirgan tajribasi asosida o'sib kelayotgan yosh avlodni ham mehnatda ishtirok etishga o'rgatish kerak edi va shunday qildi.

Shunday qilib tarbiya kishilik jamiyati praktik ehtiyojining obyektiv zaruriyatidan kelib chiqdi, shu jamiyat bilan birga rivojlana bordi.

Pedagog ya'ni o'qituvchilik kasbi juda ham murakkab kasblardan biri.

Hozirgi zamon o'qituvchisi zimmasiga yosh avlodni jismoniy jihatdan pishiq, ruhan tetik, bilimdon, vatanparvar, mamlakatimizda demokratik jamiyat qurilishning vazifasi yuklangan. Shuning uchun ham u keng ma'lumotli va yuksak madaniyatli kishi bo'lishi lozim.

O'qituvchi talabalarni sevishtirish ularga chinakam g'amxo'rlik qilish va ular bilan o'z farzandidek munosabatda bo'lishi kerak. Talabalar mehribon ochiq ko'ngil, o'zini ularga yaqin tutadigan o'qituvchini sevadigan, har bir ishda unga erishishga harakat qiladilar, hatto shunday hislatlarga ega bo'lgan pedagoglardan ba'zilarini umr bo'yi unutmaydilar.

O'qituvchiga xos xususiyatlardan yana biri talabalar bilan bir me'yorda munosabatda bo'lish, lekin ularga nisbatan qat'iy va jiddiy talabchan bo'la olishdir. O'qituvchi talabalar bilan yaqindan munosabatda bo'lish ularga doimo g'amxo'rlik qilish bilan bir vaqtda ularni erkalatib ham yubormasligi kerak.

Talabalar o'zlari bilan haddan tashqari qo'pol muomilada bo'lishini, oqituvchini sevmaydilar. Bas, shunday ekan, o'qituvchi talabalar bilan bir me'yorda muomila qilish kerak.

Shuning uchun hamisha yangi g'alabalar sari dadil qadam tashlab beruvchi yangiliklar izlovchi har bit o'qituvchi ta'lim tarbiya yo'llariga javob bera oladigan darajaga ko'tarish uchun tabiat va jamiyatning vujudga kelishi hamda taraqqiyot qonuniyatlarini yaxshi bilishi kerak. O'qituvchi sinfda va sinfdan tashqarida o'qituvchilar o'rtasida olib boradigan ta'lim-tarbiya ishida ularni hozirgi zamon masalalari bilan tarbiyalaydi.

ZAMONAVIY O'QITISH TEXNOLOGIYASI

Kasbiy ta'lim deganda, talabalarning muayyan tipdagi o'quv yurtida (litsey, kollej) o'qish jarayonida egallab olishi lozim bilgan hamda sistemaga solingan bilim, ko'nikma va malakalarning aniq belgilangan doirasi tushuniladi. Bu bilim, malaka va ko'nikmalar doirasi eng muhim faktlar, ilmiy tushunchalar, qonun va nazariyalarni dunyoqarash va g'oyalarini hamda estetik normalar va ideallarini talabalarning ko'rsatgan ma'lumotlarini o'rganish ularning ilmiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini rivojlarini usullari haqidagi materiallarini, shuningdek malaka va yangi zamonaviy bilimlarni amalda qo'llash va yangi bilimlarni egallashdagi malaka hamda ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

Kasbiy ta'limning mazmuni bir qator faktorlarni hisobga olish bilan belgilanadi, bu faktorlarning asosiylari:

- a) Ijtimoiy ishlab chiqarishning obyektiv ehtiyojlari hamda fan va texnikaning taraqqiy darajasi, ijtimoiy tuzumning harakteri bunga davlatimizning hozirgi paytda olib borayotgan, kasbiy ta'lim nazariyasi va ma'naviy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish chora tadbirlari haqidagi bosqich islohatlari keradi.
- b) Davlatimizning muayyan turdagi o'quv yurti oldiga qo'yadigan maqsad hamda vazifalari. Bunday tipdagi o'quv yurtlari sirasiga o'qish muddati hamda 3 yil bo'lgan akademik litseylar va kasbiy kollejlari kirib, ular oldiga "Ijodiy va ijtimoiy faolligi bilan ajralib turadigan yuqori umumiy kasbiy ma'daniyatni kasb etgan mutaxassislar ya'ni barkamol avlodni shakllantirish maqsad qilib qo'yadi. Bunday barkamol avlodni shakllantirish maqsad (qilib qo'yiladi)ida vazirlar mahkamasi 1998-yil 24-fevralda qabul qilingan "Akademik litseylar va kasbiy kollejlari tashkil etish va ular faoliyatini boshqarish to'g'risidagi qarori kasbiy kollejlari uchun malakali pedagog va muhandis pedagog kadrlar tayyorlaydigan oiliy o'quv yurtlarini ham belgilab beradi.

DARSNING BORISHI

REJA:

1. Portret yaratishning ketma-ketligi talabalarning kasbiy malakasini shakllantirish.
2. Portret yaratishda grafik ishlarni bajarishda, ustoz-shogird an'analari. Ustoz va shogirdning o'zaro me'zonlari asosida ish yuritib boorish.
3. Yuqorida o'tilg dars ketma-ketligi jarayonida talaba tafakkuri va ksbga qiziqishini oshirib, rivojlantirish orqali mavzuga oid plakat yaratish.

Maxsus fan o'qitunchisi
Xalilova Dildoraning
4 soatga muljalangan

“Tasdiqlayman”
o'quv ishlar bo'yicha
direktor o'rinbosari

DARS REJA MATNI

Gurux: 212

Sana: 26.04.2014

Darsning tartib soni № _2_4 soatga muljallangan

Darsning mavzusi: “Rangtasvirda portret ishlash”

Darsning maqsadi: Talabalarga natyurmort ishlash ketma-ketligini to'shuntirib
ko'rsatish

Talimiy: Ishlab chiqarish talimi jarayonida talabalarning kasbiy malakalarini
shakllantirish.

Tarbiyaviy: Talabalarni kasbiy malakalarini shakllantirishda ustoz - shogird
an'alariga amal qilishni ko'rsatish.

Rivojlantiruvchi: Talabalarga individual usulda topshiriq berib, ularning ijodiy
qobiliyatini o'stirish.

DARS TURI

Dars qilinadigan asosiy usullar:

Darsning jihozlari: Ushbu darsga ta'luqli bo'lgan asbob-uskunalar, materiallar, chizmalar va slaydlar.

DARSNING MAZMUNI

1. Tashkiliy qism: Talbalar bilan salomlashib jurnaldagi ro'yxat bo'yicha yo'qlama qilib chiqish.
2. O'tgan dars mavzusini so'rab, mustahkamlash va talabalar bilimini baholash.
 - a) Portret so'zini ma'nosini bilasizmi?
 - b) Portret necha xil bo'ladi?
 - c) Portret qanda bajariladi?
3. O'tilgan mavzuga yakun yasash.
4. Yangi mavzuni boshi.
5. O'tilgan yangi mavzu yuzasidan savol javoblar.
6. Uyga vazifa.
7. Darsni yakunlash.

AMALIY DARS O'TISH USULI QO'LLANILIB O'TILADIGAN 80-
MINUTLIK DARS TAQVIMI

Mavzu: Rangtasvirda portret ishlash

O'qituvchi salomlashib, yo'qlama qiladi	5 min
Uy vazifa tekshirilib, bilimlar baholanadi	15 min
Yangi mavzu e'lon qilinadi. "Rangtasvirda portret ishlash"	5 min
Mavzuga oid tarqatma materiallar tarqatiladi. Talabalar tarqatma materiallarni mistaqil o'rganadi.	10 min
Talabalar tayyorgarlik ko'rib, tarqatma materillardan nusxa ko'chirishga kirishadi birinchi portret qalamda ko'chirib olinib, so'ngra rang beriladi. O'qituvchi bo'lsa, ish jarayonini kuzatib borib o'z maslahatlarini beradi.	40 min
Dars tugashiga 5 minut qolganda, o'qituvchi talabalarga bajargan ishlarini yig'ib olib, darsni yakunlaydi.	5 min

“Tasdiqlayman”

Kollej direktori

2013 - 2014 o'quv yiliga mo'ljallangan I-bosqich

“Rangtasvir” guruhi uchun o'qituvchi Xalilova Dildoraning

“Rangtasvir” fanidan tuzgan yillik ish dasturi

T/r	Bo'lim va mavzularnign nomi	Mashg'ulot raqami	Dars o'tilgan kun	Dars soat	Mashg'u lot tipi va turi	Ko'rgazmali qurollar va texnik vositalar	Mustaqil ish turi. Amaliy laboratoriya tadqiqoti	Uy vazifasi	Adabiy otlar	Fanlar-aro bog'- lanish	Izox
I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
1	Mutaxassislikka kirish	№1	2.04.13	2	Og'zaki amaliy	Amaliy sanatga oid plakatlar	Amaliy sanatga oid plakatlar				
2	Kirish. Amaliy san'at asoslari	№2	14.04.13	2	Og'zaki						
3	Amaliy san'at turlaru	№3	20.04.13	2	Og'zaki	Amaliy sanat turlarini ish dasturiga yozib borish					
4	San'at mazmun va shakl	№4	26.04.13	2	Og'zaki			O'qib Kelish		Tarix	
5	Amaliy san'at turlari	№5	2.05.13	2	Og'zaki						
6	Rangtasvir san'ati	№6	8.05.13	2	Og'zaki	Rangtasvir san'atiga oid plakatlar	Plakatlarni o'rganish	Tanishish		Rasm	
7	Miniatyura janri	№7	14.05.13	2	Og'zaki	Miniatyura janriga oid slaydlar	Plakatlarni o'rganish	Tanishish		Rasm	
8	Dars o'tish xonasida xavfsizlik texnikasi va yong'in xavfsiz	№8	20.05.13	2	Og'zaki va amaliy	Xavfsizlik texnikasi va yong'in xavfsizligiga oid plakatlar	Plakatlarni o'rganish			Fizika ximiya	
9	Miniatyura yaratishda ishlatiladigan asbob uskunalarni saqlash qoidalari	№9	26.05.13	2	Og'zaki	Ma'lum usullardan foydalanish					
10	Miniatyura yaratishda ishlatiladigan asbob turlar	№10	1.05.13	2	Og'zaki	Asboblarni tasvirlangan slaydlar	Asboblarni tanlash				
11	Miniatyura eskizlarini qog'ozga chizish	№11	7.06.13	4	Og'zaki	Eskizlar					

I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
12	Miniatyura chizish haqida tushuncha berish	№12	13.06.13	2	Og'zaki	Miniatyuraga oid plakatlar				Grafika	
13	Tayyor eskizlarni qalamda bajarish	№13	19.06.13	4	Amaliy						
14	Qalamda tayyor miniatyuraga rang berish	№14	25.06.13	4	Amaliy	Mo'yqalam va rangladan foydalanish	Rangshunoslik slaydlar			Chizmachilik	
15	Taqdimot			50							

Tuzuvchi fan o'qituvchisi:

Xalilova Dildora

Samarqand viloyati
Samarqand shahar San'at
kolleji Rangtasvir №____
guruhi murabbiysi

“Tasdiqlayman” kollej
ma'naviy va ma'rifay
ishlari bo'yicha director
o'rinbosari

O'qituvchi Xalilova Dildoraning 2013-2014 o'quv yilida

bajariladigan ma'naviy va ma'rifiy ishlar rejasi

№	Bajariladigan tadbirlar	Bajarish muddati	Izod
1	Avgust	25.08.13	Murabbiy
	Dars sinfxonasini davlat ramslari: Prezident portreti, davlat gerbi, davlat bayrog'I davlat tilini va president asarlari bilan jihozlash		
2	Sentabr	1.09.13	Ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha director o'rinbosari
	1-sentabr O'zbekiston Respublikasi Mustaqillik kuniga bag'shlangan tadbirda qatnashish		
3	Sentabr	2.09.13	Direktor o'rinbosari
	Bilim yurtidan kelgan talabalarni, bilim yurtining ichki qonun-qoidalari bilan tanishtirish		
4	Oktabr	Doimiy	Murabbiy
	Shahrimizdagi tarixiy obidalar haqida suhbat		
5	Guruh davomati va o'qish jarayonini tekshirib borish		
6	Oktabr	Doimiy	Tarix o'qituvchisi
	O'zbekiston Respublikasining Davlat ramziy belgilari haqida talabalarga to'liq ma'lumot berish		
7	Dekabr	7.11.13	Murabbiy. Tarix o'qituvchisi
	8-dekabr O'zbekiston Respublikasining “Konstitutsiyasi kuni” mavzusida talabalarga ma'ruza o'qish		
8	Yanvar	25.01.14	Murabbiy
	I-yarim yillik yakuni guruhning umumiy va maxsus fanlardan to'plangan joriy oraliq va yakuniy nazorat rayting ballarini ko'rib chiqib, talabalar bilan birgalikda tahlil qilishi.		

Tuzuvchi fan o'qituvchisi:

Xalilova Dildora

XULOSA

XULOSA

Imonim komilki har bir rassom o'z ijodiy faoliyatida albatta "Ayol"lar mavzusida ijod qiladi. Buning sababi juda oddiy. Chunki ayol bu birinchi navatda ona. Ona so'zi esa Vatan demakdir. Undan so'ng ayol go'zallik siymosi, ishq-muhabbat, ya'ni sevgi timsolidir.

Ana shu tamoyillar asnosida men ham bo'lg'usi san'atshunos sifatida o'zimning birinchi mustaqil rang tasvir ishimga, ya'ni bitiruv malakaviy ishimga aynan shu mavzuni tanladim.

Bitiruv malakaviy ishni bajarishda 4 yil davomida ustozlardan olgan bilim va ko'nikmalar juda qo'l keldi. Buning uchun ulardan minnatdorman.

Kelajakda magistraturaga o'qishga kirib, bilimlarni mukammallashtirgan holda ustozlar ishonchini oqlash niyatidaman...

ADABIYOTLAR

ADABIYOTLAR

1. I. A. Karimov “O’zbekiston o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li” Toshkent “O’zbekiston” 1992-yil.
2. I. A. Karimov “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida” Toshkent 1997-yil.
3. X. T. Avliyoqulov “Zamonaviy o’qitish texnologiyalari” Toshkent 2001-yil.
4. Oripov B. “Tasviriy san’at va uni o’qitish metodikasi” Toshkent 2005-yil.
5. X. Egamov “Bo’yoqlar bilan ishlash”. Toshkent “O’qituvchi” 1981-yil.
6. S. Abdurasulov, N. Tolipov, N. Oripov “Rangtasvir” Toshkent 2006-yil.
7. S. Abdurasulov “Rangtasvir” “Bilim” 2005-yil.
8. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi.
9. M. Nabiyeu “Rangshunoslik” Toshkent “O’qituvchi” nashriyoti 1995-yil.
10. N. Oydinov “Rassom-o’qituvchilar tayyorlash muammolari” Toshkent 1997-yil.
11. [www. Ziyonet.com](http://www.Ziyonet.com)
12. Hayot faoliyati xavfsizligi.
13. Ekologiya asoslari. R. Egamberdiyev. R. Eshjanov 2000-yil.